

## BOLALARDAGI AGRESSIV XULQ-ATVORNI KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

*Madartova Barno Yaxshiboyevna*

*Nurobod tumani MMTB ga qarashli 20-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalardagi agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, uning psixologik omillari hamda agressiv holatlarni bartaraf etishning samarali psixologik usullari yoritilgan. Shuningdek, oila, maktab va psixolog hamkorligining bolaning ruhiy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** Agressivlik, xulq-atvor, emotsional zoʻriqish, psixologik muammo, bola psixologiyasi, stress, kommunikativ koʻnikma, psixologik yordam, korreksion ishlar, ijtimoiy muhit.

### KIRISH

Bugungi kunda bolalar va oʻsmirlar oʻrtasida agressiv xulq-atvorning namoyon boʻlishi dolzarb psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Agressivlik bolaning atrofdagilarga nisbatan tajovuzkor munosabatda boʻlishi, jahldorlik, urushqoqlik, qoʻpollik yoki hissiyotlarini nazorat qila olmasligi orqali namoyon boʻladi. Bolalardagi agressiv xulq-atvorning kelib chiqishida bir qator psixologik va ijtimoiy omillar mavjud. Eng avvalo, oiladagi nosogʻlom muhit, ota-onalar oʻrtasidagi nizolar, bolaning eʻtiborsiz qolishi yoki qattiq jazolanishi agressivlikning shakllanishiga sabab boʻlishi mumkin.

Shuningdek, bolaning tengdoshlari bilan munosabatidagi muammolar, maktabdagi nizoli vaziyatlar va zoʻravonlikka duch kelishi ham agressiv reaksiyalarni kuchaytiradi. Ayrim hollarda bolalar oʻz ichki noroziliklarini agressiv harakatlar orqali ifoda etadilar. Albert Banduraning ijtimoiy oʻrganish nazariyasiga koʻra, bolalar agressiv xatti-harakatlarni kuzatish va taqlid qilish orqali oʻzlashtiradilar. Shu sababli oiladagi va ijtimoiy muhitdagi salbiy namunalarning taʼsiri katta ahamiyatga ega.

Agressiv bolalarda ko‘pincha emotsional beqarorlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik yoki e’tibor yetishmasligi kuzatiladi. Ayrim bolalar o‘z hissiyotlarini boshqara olmagan sababli agressiv xatti-harakatlarga murojaat qiladilar. Agressivlikni bartaraf etishda avvalo bolaning ruhiy holatini chuqur o‘rganish muhimdir. Maktab amaliyotchi psixologi kuzatish, suhbat va psixodiagnostik metodlar yordamida bolaning emotsional holatini aniqlaydi.

Psixologik korreksiya jarayonida relaksatsion mashqlar, emotsional boshqaruv treninglari va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish usullaridan foydalaniladi. Nafas mashqlari, art-terapiya, musiqaterapiya va rolli o‘yinlar bolaning hissiy zo‘riqishini kamaytirishga yordam beradi. Carl Rogers bolaning shaxs sifatida qabul qilinishi va qo‘llab-quvvatlanishi uning ijobiy rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlagan. Shu sababli agressiv bolaga nisbatan qo‘pol munosabat emas, balki tushunish va mehr bilan yondashish muhimdir. Ota-onalarning tarbiyadagi yondashuvi ham agressivlikning oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Farzand bilan samimiy muloqot qilish, uni tinglash va hissiyotlarini erkin ifoda etishiga imkon yaratish bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Maktab muhitida sog‘lom psixologik atmosfera yaratish ham muhim hisoblanadi. O‘quvchilar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantirish, bulling va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish agressiv xulq-atvor kamayishiga yordam beradi. Bolalarni sport, san‘at, kitobxonlik va ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilish ham agressiv energiyani ijobiy faoliyatga yo‘naltirishda samarali vosita hisoblanadi.

Jamiyatimizda tajovuzkor xatti-harakatlar jiddiy muammo bo‘lib, har bir ishtirokchi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu jismoniy tajovuz, og‘zaki haqorat, tahdid, mobbing va boshqa zo‘ravonlik shakllarini o‘z ichiga olgan turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Agressiv xatti-harakatlar turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, ijtimoiy tengsizlik, stress, past darajadagi ta’lim, oiladagi zo‘ravonlik, salbiy atrof-muhit ta’siri va boshqa omillar. U alohida shaxslarga ham, guruhlariga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin hamda jamoat joylarida va shaxsiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Agressiv xatti-harakatlar jamiyat uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu jismoniy va ruhiy zararga, shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, ruhiy salomatlikning

yomonlashishiga, jinoyatchilikning kuchayishiga va jamoat tartibining buzilishiga sabab bo‘ladi. Agressiv xatti-harakatlar jamiyatda turli shakllarda va darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu hodisaning tarqalishi ko‘plab omillarga, jumladan, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va individual xususiyatlarga bog‘liq. Ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlar: Agressiv yoki ziddiyatli ijtimoiy me‘yorlar ustun bo‘lgan jamiyatlarda tajovuzkor xatti-harakatlar ko‘proq uchrashi mumkin.

Iqtisodiy sharoitlar: Tengsizlik, qashshoqlik, ishsizlik va boshqa iqtisodiy omillar jamiyatda tajovuzkor xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Oila va ta‘lim muhiti: Salbiy oilaviy munosabatlar, yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaslik va ta‘limdagi kamchiliklar bolalar va o‘smirlarda agressiv xatti-harakatlarning rivojlanish ehtimolini oshiradi. Media va madaniy ta‘sirilar: OAV va madaniy mahsulotlarda tasvirlangan zo‘ravonlik va tajovuz agressiv qarashlar hamda xatti-harakatlarning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Psixologik omillar: O‘zini boshqarishning pastligi, o‘zini past baholash va hissiy nazorat bilan bog‘liq muammolar ham tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Agressiv xatti-harakatlar jamiyatda keng tarqalgan bo‘lsa-da, bu muammolarni hal qilishning maqbul usuli emasligini unutmaslik kerak. Agressiyaning oldini olish va jamiyatdagi nizolarni bartaraf etish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish hamda maxsus dasturlar ishlab chiqish uning tarqalishini kamaytirish va xavfsiz, uyg‘un muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatdagi tajovuzkor xatti-harakatlarga qarshi kurashish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu tinchlik va bag‘rikenglikni targ‘ib qilish, tajovuzga uchragan insonlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyatning barcha a‘zolari uchun xavfsiz va hurmatli muhit yaratishga qaratilgan ta‘lim dasturlarini o‘z ichiga oladi.

Agressiv xatti-harakatlarning sabablarini va oldini olish usullarini chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy tadqiqotlar va diagnostika ishlari muhim hisoblanadi. Bu esa tajovuzkor xatti-harakatlarni kamaytirish va uyg‘un jamiyatni shakllantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Agressiv xulq-atvor muammolari so‘zlar, harakatlar va turli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. U quyidagi muammolarni

keltirib chiqarishi mumkin: – xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar; – ishonchning yo‘qolishi; – jismoniy yoki psixologik salbiy o‘zgarishlar; – muloqot va aloqa muammolari; – xulq-atvordagi salbiy odatlarning kuchayishi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun inson o‘z xulq-atvorini nazorat qilishni o‘rganishi, hissiy holatini boshqarishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim.

Psixologik yordam: Agar inson agressiv xulq-atvor bilan bog‘liq muammolarga duch kelsa, psixolog yoki mutaxassis bilan maslahatlashish foydali hisoblanadi. Psixolog muammoning sabablarini tahlil qiladi, xulq-atvorni boshqarish usullarini tavsiya etadi va kerakli yordam ko‘rsatadi.

“Agressiv xulq-atvor” tushunchasi insonning boshqalarga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan salbiy harakatlarini anglatadi. Bu jismoniy yoki ma’naviy zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar bo‘lishi mumkin.

Agressiv xulq-atvorning ko‘rinishlari: – boshqalarga salbiy munosabatda bo‘lish; – jismoniy yoki og‘zaki zarar yetkazish; – tez-tez ziddiyatlarga kirishish; – jahldorlik va qo‘pollik.

Agressiv xatti-harakatni tashxislash psixologiyada muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda turli metodologiyalar va yondashuvlardan foydalaniladi. Tajovuzkor xatti-harakatlarga sabab bo‘luvchi omillar, psixologik baholash usullari va atrof-muhit ta’siri chuqur o‘rganiladi.

### **Agressiv xatti-harakatlarning sabablariga quyidagilar kiradi:**

Biologik omillar: Genetik moyillik, nevrologik holatlar va biologik o‘zgarishlar agressiv xulq-atvorning shakllanishida muhim rol o‘ynashi mumkin.

Psixologik omillar: Stress, depressiya, hissiy zo‘riqish va ruhiy muammolar tajovuzkorlikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy omillar: Oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, zo‘ravonlikka boy muhit va ijtimoiy muammolar agressivlikning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Agressiv xatti-harakatlarni tashxislash malakali psixolog, psixoterapevt yoki psixiatr tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ular nafaqat xatti-harakatni, balki uning yuzaga kelish sabablari va kontekstini ham baholaydilar.

Diagnostika jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi:

**Kuzatish:** Mutaxassis insonning xatti-harakatlarini real vaziyatda kuzatadi va tajovuzning ko‘rinishlari, davomiyligi hamda sabablarini qayd etadi.

**Suhbat:** Bola yoki kattalar bilan suhbat orqali agressiv xatti-harakatlarning sabablari aniqlanadi.

**Psixologik testlar:** Turli test va metodikalar yordamida insonning hissiy holati va tajovuz darajasi baholanadi.

Agressiv xatti-harakatlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: – jismoniy tajovuz (urish, itarish); – og‘zaki tajovuz (haqorat, baqirish); – ijtimoiy tajovuz (mish-mish tarqatish, chetlatish).

Agressiv xatti-harakatlar atrof-muhitga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikning buzilishiga, insonlar orasida qo‘rquv va ishonchsizlikning paydo bo‘lishiga olib keladi.

**Psixologik ta‘sir:** Tajovuzkor xatti-harakatlarga duch kelgan insonlarda qo‘rquv, stress, tashvish va ruhiy tushkunlik kuzatilishi mumkin.

**Ta‘lim muhiti:** Maktab va ta‘lim muassasalarida agressiv xatti-harakatlar o‘quv muhitining buzilishiga, o‘quvchilarning ruhiy holatiga va akademik natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**Jismoniy muhit:** Tajovuzkor harakatlar mulkka zarar yetkazish, vandalizm va jamoat joylarining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

**Uzoq muddatli ta‘sirlar:** Doimiy agressiv muhit jamiyatda qo‘rquv, ishonchsizlik va ijtimoiy ajralishga olib keladi.

Agressiv xulq-atvorni psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda quyidagi usullardan foydalaniladi:

**Empatiya va tushunish:** Psixolog mijozning his-tuyg‘ularini tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi kerak.

**Ishonchli munosabatlarni shakllantirish:** Mijoz o‘z muammolarini erkin bayon qila oladigan muhit yaratish muhimdir.

Tuyg‘ularni boshqarish strategiyalari: Nafas mashqlari, relaksatsiya usullari va hissiy nazorat texnikalari o‘rgatiladi.

Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: Inson o‘z his-tuyg‘ularini agressiyasiz ifoda etishni o‘rganadi.

Stress omillarini aniqlash: Tajovuzga sabab bo‘luvchi omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish usullari ishlab chiqiladi.

Qo‘llab-quvvatlash va fikr-mulohaza: Psixolog mijozning rivojlanishini kuzatib boradi va kerakli tavsiyalar beradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, agressiv xatti-harakatlarning diagnostikasi individual xususiyatlar, psixologik baholash, atrof-muhit omillari va nevrologik holatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi. Klinik baholash va ijtimoiy tahlil usullarini birlashtirish agressiv xatti-harakatlarning sabablarini chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda samarali profilaktika va korreksion choralarni ishlab chiqish imkonini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. McCloskey, M. S., & Lichter, J. B. (2003). Turmushdagi zo‘ravonlikning turli munosabatlardagi o‘smirlar tajovuzkorligiga qo‘shgan hissasi. *Journal of Interpersonal Violence*, 18(4), 390–412.
2. Moffitt, T. E. (2006). Hayot davomida davom etuvchi va o‘smirlik davriga xos antisotsial xatti-harakatlar. *Developmental Psychopathology*, 3, 570–598.
3. Raximjonovna, U. N. (2023). O‘smir yoshidagi o‘quvchilarda “Tarbiya” fanini o‘qitish orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatish. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232–237.
4. Asilova, S. X. (2023). O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.
5. Xursanov, O. (2023). Talabalarni hamkorlik texnologiyasi asosida o‘quv-ma’naviy moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirish texnologiyasi. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 264–269.

6. Maxmudova, Z. (2023). Ta'lim muassasasi rahbarlarida yuksak axloqiy sifatlarni rivojlantirish. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 78–83.
7. Toxirjon, U. (2024). Pedagogika va psixologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish. *Integration of Economy and Education in the 21st Century*, 2(2), 22–27.
8. Toxirjon, U. (2024). Boshlang'ich sinflarda o'qishni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilar bilan ishlashda interfaol usullardan foydalanish. *Integration of Economy and Education in the 21st Century*, 2(2), 9–13.
9. Umarov, T. (2024). Provision of Psychological Services in Extreme Situations is Social. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(2), 1–6.
10. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy innovatsion tadqiqotlar. (2024). Pedagogika va psixologiyaning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, 2(2), 5–12.
11. Umarov, T. (2024). Psixologik printsiplar va turli din vakillari o'rtasidagi munosabatlar. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(2), 18–25.
12. Toxirjon, U. (2024). Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganish (PIRLS). *Integration of Economy and Education in the 21st Century*, 2(2), 14–17.